

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RUS TILIGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Mannobova Mukarramxon Murodali qizi

Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga rus tilini o'rgatishda pedagogik suhbat, bolalar bilan so'zlashish, topshiriq va vazifalar berish, tarbiyachi so'zlarini yod olish, sayohatlar, jismoniy mashqlar, pedagogning o'yinchoq suratlar haqidagi hikoyasi, stol qo'g'irchoq teatrini namoyish etish, ertak va she'rlarni sahnalashtirish, o'yinlar kabi metodik usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, rus tili, suhbat, o'yin, sayohat, metod, usul.

Suhbat — bu rus tilini o'qitishning dastlabki bosqichida eng qulay va keng tarqalgan ish turidir. Suhbat jarayonida bolalar yangi so'zlarni zarur grammatik shaklda o'rganib oladilar, o'tgan mashg'ulot materiallarini takrorlaydilar, ularda o'rganilayotgan tilda muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Milliy maktabgacha ta'lim muassasalarida rus tili mashg'ulotlarida asosan hosil qiluvchi (o'rgatilgan material asosida) va umumlashtiruvchi suhbatlardan foydalanish lozim. Suhbatdan bolalar bilimlarini bir tizimga solish uchun foydalaniladi. Suhbat jonli tusga ega bo'lishi va eng yuqori samara berishi uchun bolalarning mustaqil fikrlarini eshitish, ularning suhbat mavzusiga nisbatan shaxsiy munosabatlarini aniqlashga intilish lozim.

Suhbat tabiiy holda va erkin borishi zarur. Agar mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa, qisqa javob keng yoyilgan javobdan ko'ra ishonchliroq chiqadi. To'g'ri javob olish uchun savolni **to'g'ri tuzish muhim** ahamiyatga ega. Savollar oddiy, aniq, va tushunarli bo'lishi kerak. Maktab yoshidagi bolalarning individual xususiyatlariga mos keluvchi hamda ularga uchun mumkin bo'lgan savollarning qo'yilishi o'z leksikasi va frazeologiyasi jihatdan katta pedagogik va metodik mahoratni talab etadi.

Dastlabki rus tili mashg'ulotlarida bolalar boshlang'ich shakldagi otlar bilan tanishadilar, shuning uchun savollar javobda boshlang'ich shakldagi so'zlar qo'llanishini talab qiluvchi ko'rinishga ega bo'lishi lozim:

-Eto chto? - Eto kukla.
A eto chto? - Eto mishka.

Keyin javobida DA, NET tasdiq yoki inkor so'zlar ishtirok etadigan savollarni berish lozim:

-Eto kubik? - Da, eto kubik.
-Eto myach? - Net, eto shar.

Savollar bolalar javoblardagi so'zlarni savolda qo'llanilmagan grammatik shakllarda qo'llashga majbur bo'ladigan darajada asta-sekin murakkablashtirilib borilishi lozim.

-Eto kakoy kubik? - Eto krasnyy kubik.

Pedagog bolalar javoblariga katta e'tibor bilan qarashi lozim. Dastlabki mashg'ulotlarda u javoblarning namunalarini beradi. Bolalarni nafaqat berilgan savollarga javob qaytarishga, balki ularning o'zlarini ham savol berishga o'rgatish darkor. K.D.Ushinskiy bu ish uslubiga katta ahamiyat bergan. U yozadi: "...o'quvchining bilim olish jarayonida nafaqat guvoh va tinglovchi, balki faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ekanligining o'zi mashg'ulotni juda qiziqarli qiladi".

Shunday qilib, bolalarning suhbat jarayonida ishtirok etishi majburiydir. Suhbatni shunday uyushtirish kerakki, toki unda barcha ishtirok etsin. Agar bola faqat tarbiyachining boshqa bolalar bilan bo'layotgan suhbatni eshitib gapiraversa-yu, ozi luqma tashlay olmasa, bu holda u suhbatlashish jarayonini

mashq qilmaydi va uning suhbatdagi ishtiroki faqat nomigagina bo'ladi xolos. Shunga erishish lozimki, toki har bir bola nafaqat eshitishni, balki so'zlashni mashq qila olsin.

Ishning savol-javob shakli foydali usul hisoblanadi va undan to'g'ri foydalanilganda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Biroq, u hukmron bo'lib qolmasligi lozim, uni boshqa usullar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Boshqa kishilar bilan suhbatlashish, o'ztaassurotlarini, fikrlarini, hislarini, kechinmalarini boshqalar bilan o'rtoqlashishga ehtiyojmandlik insonga xos xususiyatlardandir. Bolaga esa, ayniqsa, ko'proq xosdir. Bu ehtiyojdan boshqa millat bolalarida ruscha suhbatlashish nutqini rivojlantirish yo'lida foydalanish lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bola tovush dunyosi bilan qiziqishni va unga munosabat bildirishni erta boshlaydi, ritmni qabul qilish borasida yorqin ifodalangan sezgini namoyon qiladi. Bolalar she'r eshitish va uni gapirib berishni yaxshi ko'radilar. "Yaxshi she'r — musiqa. Eng kichik bolalar ham uning sur'atini osonlik bilan ilgab oladilar, ular qofiyalarning bir-biriga mos kelishidan va she'rning chiroyli yozilganidan zavqlanadilar.

Ruscha so'zlashish nutqini o'rgatishda atrofni o'rab turgan muhit katta imkoniyatlar yaratadi. Izchillik bilan amaliy tajriba to'plash va o'z taassurotlari, hissiyotlarini nutqda aks ettirish uchun bolalarda kuzatish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Taassurot esa hamma vaqt so'zdan oldin turishi, so'z esa taassurotning ortidan borishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotda tez toliqib qoladilar, shuning uchun mashg'ulotni o'tkazish jarayonida pedagogga bolalarning ish qobiliyatini oshiruvchi yengil jismoniy mashqlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Jismoniy mashqlarni o'tkazish paytida bolalar ruscha so'zlarni qo'llagan holda harakat qiladilar, turli harakatlarni bajaradilar, tanish so'zlarni, so'z birikmalarini, gaplarni va she'rlarni takrorlaydilar hamda mustahkamlaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yinchoqlar muhim o'rin tutadi. O'yinchoqlarda atrofda hayotiy narsalar kichraytirilgan hajmda aks etgan va bu bolaga ulardan o'yin davomida hayotiy vaziyatlarga qarab foydalanish imkonini beradi. O'yinchoqlar milliy bolalar bog'chalarida bolalarning ruscha nutqni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ular bolalarning rus tilidagi bilimlarini mustahkamlashda - ko'p martalabimkoniyatlar yaratib beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni rus tiliga o'rgatish qiziqarli o'yinlar orqali samarali amalga oshadi. Bunda bola o'yin zavqi bilan bo'lib, rus tilini o'rganayotganida qiyinchilikka uchramaydi. Bunda qo'llaniladigan metodlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida keng ommalashtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Adabiyotlar

1. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi».«O'qituvchi»T.,1991y.
2. «Uchinchi mingyillikning bolasi» T.,Ma'rifat-madadkor.2002.
3. T.S.Komarova. Metodika obucheniya izobrazitelnoy deyatelnosti konstruirovaniY.M.,«Prosvesheniye»1991.
4. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T., Ma'rifat-madadkor.2002.
5. N.P. Kosterina. «Uchebnoye risovaniye» M. «Prosvesheniye» 1984
6. O.Gusakova. «Applikatsiya v detskom sadu». M. «Prosvesheniye» 1988
7. S.Komarova.«Zanyatiya poIZO deyatelnosti v detskom sadu».«Prosvesheniye».1978.